

Date: 1st August-2026

**ZAMONAVIY PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR ASOSIDA YOSHLAR
MA'NAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHNING
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

Ahmadjonova E'zoza Maxmud qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik innovatsiyalar asosida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil etilgan. Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni shaxsning ijtimoiy-madaniy, axloqiy va intellektual kamolotini ta'minlovchi muhim pedagogik jarayon sifatida yoritilgan. Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim metodlari, raqamli ta'lim vositalari, muammoli va loyihaviy ta'lim, shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida yoshlarning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ongli munosabati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishning samarali mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada pedagogik innovatsiyalarni ma'naviy tarbiya jarayoniga integratsiyalash orqali yoshlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan barqaror dunyoqarashini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik innovatsiyalar, ma'naviy dunyoqarash, yoshlar, innovatsion ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы развития духовного мировоззрения молодежи на основе современных педагогических инноваций. Процесс формирования и развития духовного мировоззрения молодежи рассматривается как важный педагогический процесс, обеспечивающий социально-культурное, нравственное и интеллектуальное развитие личности. В исследовании раскрываются педагогические возможности инновационных образовательных технологий, интерактивных методов обучения, цифровых образовательных средств, проблемного и проектного обучения, а также личностно-ориентированного и компетентностного подходов в развитии духовного мировоззрения молодежи. Особое внимание уделяется эффективным механизмам развития самостоятельного мышления, критического мышления, осознанного отношения к духовно-нравственным ценностям и социальной активности молодежи в современной образовательной среде. В статье также рассматриваются вопросы интеграции педагогических инноваций в процесс духовно-нравственного воспитания и формирования устойчивого мировоззрения молодежи на основе национальных и общечеловеческих ценностей.

Date: 1st August-2026

Ключевые слова: педагогические инновации, духовное мировоззрение, молодежь, инновационное образование, педагогические технологии, духовно-нравственное воспитание, интерактивные методы, цифровое образование, личностно-ориентированный подход, компетентностный подход, национальные ценности, общечеловеческие ценности.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing the spiritual worldview of young people based on modern pedagogical innovations. The process of forming and developing the spiritual worldview of youth is considered an important pedagogical process that contributes to the social, cultural, moral, and intellectual development of the individual. The study explores the pedagogical potential of innovative educational technologies, interactive teaching methods, digital learning tools, problem-based and project-based learning, as well as learner-centered and competency-based approaches in developing the spiritual worldview of young people. Particular attention is paid to effective mechanisms for developing independent thinking, critical thinking, conscious attitudes toward spiritual and moral values, and social engagement among young people in the modern educational environment. The article also examines the integration of pedagogical innovations into the process of spiritual and moral education and the formation of a sustainable worldview among young people based on national and universal human values.

Keywords: pedagogical innovations, spiritual worldview, youth, innovative education, pedagogical technologies, spiritual and moral education, interactive methods, digital education, learner-centered approach, competency-based approach, national values, universal human values.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri yoshlarni nafaqat zamonaviy bilim va kasbiy kompetensiyalar bilan qurollantirish, balki ularning mustaqil fikrlashi, tanqidiy tafakkuri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ongli munosabati va ijtimoiy faolligini rivojlantirishdan iboratdir. Zamonaviy ta'lim jarayoni endilikda faqat tayyor bilimlarni o'quvchiga yoki talabaga yetkazib berish bilan cheklanmay, balki ta'lim oluvchini bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish, baholash va amaliy faoliyatda qo'llashga yo'naltiruvchi shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvni talab etmoqda. An'anaviy ta'lim tizimi uzoq yillar davomida ta'lim jarayonining asosiy shakli sifatida o'zining didaktik imkoniyatlarini namoyon etib kelgan. Mazkur tizimda o'qituvchining bilim beruvchi, ta'lim oluvchining esa bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatidagi mavqei ustuvor bo'lgan. An'anaviy ta'limning ilmiylik, tizimlilik, izchillik, onglilik, faollik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi hamda ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi tamoyillari bugungi kunda ham o'z pedagogik ahamiyatini saqlab qolmoqda. Biroq zamonaviy ta'limning mazmuni va maqsadlari o'zgarishi, axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi hamda mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi ta'lim jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy



Date: 1st August-2026



etishni taqozo etmoqda. An'anaviy ta'limning asosiy cheklovlaridan biri ta'lim oluvchining individual ta'lim ehtiyojlari va shaxsiy imkoniyatlarini har doim ham to'liq hisobga olish imkoniyatining cheklanganligidir. O'qituvchi tomonidan berilayotgan tayyor axborotni o'zlashtirishga asoslangan ta'lim jarayonida talabanning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish, ijodiy yondashish va o'z nuqtayi nazarini asoslash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmasligi mumkin. Ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish jarayonida faqat ma'lumot berish yoki tayyor xulosalarni yetkazish kutilgan pedagogik natijani bermaydi. Chunki ma'naviy dunyoqarash shaxsning faol bilish, mushohada yuritish, ijtimoiy tajribani tahlil qilish va qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilish jarayonida shakllanadi. Shu sababli ham zamonaviy pedagogik innovatsiyalarning asosiy vazifalaridan biri ta'lim oluvchini pedagogik jarayonning passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantirishdan iboratdir. Bunda interfaol ta'lim metodlari, muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, keys-stadi, debat, munozara, "aqliy hujum", "klaster", "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "T-jadval", "Insert" kabi metodlar bilan bir qatorda raqamli ta'lim platformalari, multimedia vositalari, virtual ta'lim muhiti, gamifikatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishda, avvalo, darsning maqsadi, mazmuni, ta'lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlari hamda kutilayotgan natijalar aniq belgilanishi lozim. Pedagogik texnologiyaning samaradorligi faqat innovatsion metoddan foydalanish bilan emas, balki mazkur metodning ta'lim maqsadiga qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi. Masalan, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotda oddiy ma'ruza shaklidan ko'ra, muammoli vaziyat yaratish va talabalarni muhokamaga jalb etish samaraliroq natija berishi mumkin. Masalan, "Yoshlar ma'naviy dunyoqarashining shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'рни" mavzusidagi mashg'ulotda o'qituvchi tayyor ma'lumotlarni bayon qilish o'rniga talabalarni kichik guruhlariga ajratib, ularga muammoli vaziyatni taklif qilishi mumkin. Bir guruh milliy qadriyatlarning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini, ikkinchi guruh umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyatini, uchinchi guruh esa globallashuv sharoitida qadriyatlar transformatsiyasini tahlil qiladi. Yakunda guruhlar o'z xulosalarini himoya qiladi va umumiy munozara tashkil etiladi. Bunday yondashuv ta'lim oluvchining mustaqil fikrlashi, dalillar asosida xulosa chiqarishi, boshqalarning fikrini tinglashi va o'z nuqtayi nazarini asoslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik innovatsiyalarning muhim yo'nalishlaridan biri muammoli ta'lim texnologiyasidir. Mazkur texnologiya ta'lim oluvchini tayyor bilimni o'zlashtirishdan ko'ra, muayyan muammoni mustaqil hal qilishga yo'naltiradi. Muammoli ta'lim yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda ayniqsa samarali bo'lib, ularni real hayotdagi ijtimoiy va ma'naviy masalalar yuzasidan mustaqil fikr yuritishga undaydi. Masalan, "Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar ma'naviyati" mavzusida quyidagi muammoli savol qo'yilishi mumkin: "Raqamli texnologiyalar yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantiradimi yoki unga salbiy ta'sir ko'rsatadimi?" Talabalar ushbu masalani turli nuqtayi nazardan tahlil qilib, dalillar keltiradilar. Natijada ular raqamli makonning

Date: 1st August-2026



imkoniyatlari va xavflarini farqlash, axborotni tanqidiy baholash va ma'naviy qadriyatlar nuqtayi nazaridan xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Loyihaviy ta'lim texnologiyasi ham yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Loyihaviy ta'limda talaba muayyan muammoni o'rganadi, axborot izlaydi, ma'lumotlarni tahlil qiladi va amaliy natija yaratadi. Masalan, "Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish" mavzusida talabalar tomonidan ijtimoiy loyiha ishlab chiqilishi mumkin. Loyiha doirasida talabalar yoshlar orasida so'rovnoma o'tkazib, kitobxonlik holatini o'rganadilar, mavjud muammolarni aniqlaydilar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadilar. Bunday faoliyat yoshlarning tadqiqotchilik, ijodkorlik, jamoada ishlash va ijtimoiy mas'uliyat kompetensiyalarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik innovatsiyalar orasida raqamli ta'lim texnologiyalari ham alohida o'rin tutadi. Elektron ta'lim resurslari, onlayn platformalar, videodarslar, interaktiv testlar, virtual muzeylar, raqamli kutubxonalar va multimedia materiallaridan foydalanish ta'lim jarayonining mazmunini boyitadi. Ayniqsa, ma'naviy dunyoqarashni rivojlantirishda tarixiy-madaniy merosga oid raqamli manbalar, virtual ekskursiyalar va interaktiv multimedia materiallari ta'lim oluvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Masalan, tarixiy obidalar va milliy madaniy meros obyektlarini virtual ekskursiya shaklida o'rganish orqali talabalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy merosga hurmat tuyg'ularini rivojlantirish mumkin. Bunda raqamli texnologiya ma'naviy tarbiyaning maqsadi emas, balki uning samaradorligini oshiruvchi pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi ham pedagogik innovatsiyalarning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Sun'iy intellekt vositalari yordamida ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlariga mos topshiriqlar ishlab chiqish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, matnlarni tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq sun'iy intellektidan foydalanishda akademik halollik, axborot xavfsizligi, mualliflik huquqi va tanqidiy fikrlash masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu jihatdan, pedagogning vazifasi faqat texnologiyadan foydalanishni o'rgatish emas, balki yoshlarni texnologik imkoniyatlardan mas'uliyatli va ma'naviy jihatdan to'g'ri foydalanishga yo'naltirishdan ham iboratdir. Gamifikatsiya, ya'ni ta'lim jarayoniga o'yin elementlarini joriy etish ham yoshlarning faolligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik innovatsiyalardan biridir. Masalan, ma'naviy-axloqiy mavzular bo'yicha viktorinalar, interaktiv savol-javoblar, rolli o'yinlar va vaziyatli topshiriqlar tashkil etish orqali ta'lim oluvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish mumkin. "Agar siz jamiyatdagi muayyan muammoni hal qiluvchi qaror qabul qiluvchi shaxs bo'lganingizda qanday yo'l tutardingiz?" kabi vaziyatli topshiriqlar yoshlarni axloqiy tanlov, mas'uliyat va ijtimoiy javobgarlik masalalari haqida fikrlashga undaydi. Shuningdek, "Keys-stadi" metodidan foydalanish orqali real yoki shartli ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish mumkin. Masalan, "Yosh tadbirkor biznes faoliyatida yuqori daromad olish imkoniyatiga ega, biroq bu qaror ekologik yoki ijtimoiy manfaatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. U qanday qaror qabul qilishi kerak?" mazmunidagi keys

Date: 1st August-2026



talabalarda iqtisodiy manfaat va ma'naviy-axloqiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni anglash imkonini beradi. Bunday metodlar orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanadi. Interfaol grafik organayzerlar ham o'quv materialini tizimlashtirish va ta'lim oluvchilarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. "Klaster" yordamida ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismlari, "Venn diagrammasi" orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'xshash va farqli jihatlari, "Baliq skeleti" yordamida yoshlar ma'naviy dunyoqarashiga ta'sir etuvchi omillar va ularning oqibatlarini tahlil qilinishi mumkin. "T-jadval" esa ma'lum bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy jihatlari taqqoslash imkonini beradi. Interfaol metodlarni tanlashda bir qator didaktik va pedagogik mezonlarga amal qilish zarur. Birinchi mezon — metodning ta'lim maqsadiga muvofiqligidir. Ikkinchi mezon — o'quv material mazmuniga moslik. Uchinchi mezon — ta'lim oluvchilarning yoshi, bilim darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olish. To'rtinchi mezon — ta'lim muassasasining moddiy-texnik va raqamli imkoniyatlari. Beshinchi mezon — o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va pedagogik mahorati. Oltinchi mezon esa tanlangan metodning kutilayotgan ta'limiy va tarbiyaviy natijalarni ta'minlay olish darajasidir. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda "innovatsiya uchun innovatsiya" tamoyilidan qochish lozim. Ya'ni, har qanday yangi texnologiya o'z-o'zidan ta'lim sifatini oshirmaydi. Innovatsion metod pedagogik maqsadga xizmat qilishi, ta'lim oluvchining faolligini oshirishi va aniq natijaga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Masalan, raqamli taqdimotdan foydalanishning o'zi interfaol ta'limni anglatmaydi. Agar talaba faqat slaydlardagi ma'lumotni passiv qabul qilsa, ta'lim jarayoni an'anaviy shakldan keskin farq qilmaydi. Aksincha, raqamli vosita yordamida talabalar o'rtasida muhokama, hamkorlik, mustaqil tadqiqot va muammoli vaziyatni hal qilish tashkil etilsa, uning pedagogik samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy pedagogik innovatsiyalarning eng muhim jihatlardan biri ta'lim oluvchining subyektiv pozitsiyasini kuchaytirishdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda talaba tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi obyekt emas, balki o'z ta'limiy rivojlanishining faol subyekt sifatida qaraladi. Bunday yondashuv yoshlarning o'z fikrini erkin ifodalashi, o'z-o'zini baholashi, mustaqil qaror qabul qilishi va o'z faoliyati natijalarini tahlil qilishiga imkon beradi. Mazkur jihatlari ma'naviy dunyoqarashning barqaror shakllanishi uchun muhim pedagogik shartlardan biridir. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida "flipped classroom" — "teskari sinf" modeli ham samarali pedagogik innovatsiyalardan biri sifatida qo'llanilishi mumkin. Ushbu modelda talaba yangi mavzu bo'yicha dastlabki materiallarni mustaqil ravishda video, elektron matn yoki boshqa raqamli resurslar orqali o'rganadi, auditoriya mashg'ulotida esa muammoli masalalar, munozaralar va amaliy topshiriqlar bajariladi. Masalan, "Ma'naviy qadriyatlar va globallashuv" mavzusida talabalar darsdan oldin videoma'ruza bilan tanishib, mashg'ulot davomida esa globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri bo'yicha guruhli munozarada ishtirok etishlari mumkin. Natijada auditoriya va mustaqil ta'lim o'rtasidagi uzviylik ta'minlanadi. Umuman olganda, zamonaviy pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayonining mazmuni va metodlarini yangilash bilan birga, yoshlarning ma'naviy

Date: 1st August-2026

dunyoqarashini rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlarni yaratmoqda. Bunda asosiy e'tibor texnologiyaning o'ziga emas, balki uning shaxs rivojiga ko'rsatadigan pedagogik ta'siriga qaratilishi lozim. Interfaol, muammoli, loyihaviy, raqamli va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining uyg'un qo'llanilishi yoshlarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini, ijtimoiy faolligini, ma'naviy-axloqiy mas'uliyatini va qadriyatlarga ongli munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy pedagogik innovatsiyalar asosida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning samarali modeli quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar asosida tashkil etilishi mumkin: ma'naviy-ma'rifiy mazmun → innovatsion pedagogik texnologiya → faol va mustaqil ta'lim faoliyati → tanqidiy va ijodiy fikrlash → qadriyatlarga ongli munosabat → ijtimoiy-ma'naviy kompetentlik. Mazkur uzviylik ta'lim jarayonini faqat bilim berishga yo'naltirilgan tizimdan shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik muhitga aylantirish imkonini beradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni ma'naviy tarbiya jarayoniga tizimli va maqsadli joriy etish yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Bunda innovatsion texnologiyalar milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilishi, ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari hisobga olinishi hamda ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash, muloqot, hamkorlik, muammolarni hal qilish va ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Aynan shunday yondashuv orqali zamonaviy, bilimli, ma'naviy yetuk, tanqidiy va mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol hamda innovatsion tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida".
4. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2024

